

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsija etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,
2022.**

T.Egamberdiyeva

Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning
pedagogik xususiyatlari 7

R.Safarova, M.Abdullayev

Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish
usullari va metodlari 11

J.Obidov

Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik
mazmuni va amaliyotdagi holati 16

F.Madraximova

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb
pedagogik muammo sifatida 21

X.Tojiboyeva

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning
pedagogik imkoniyatlari 26

IQTISODIYOT

M.Yuldasheva, A.Kolkanatov

Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing 29

S.Ismoilova

Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan
ko'rsatkichlar tizimi 34

FALSAFA, SIYOSAT

A.Yuldashov

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy
asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'rni 39

D.Raxmatova

Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri
(xx asrning 40-50 yillar misolida) 47

TARIX

B.Matboboyev, A.Aloxunov

Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari 53

S.To'raxo'jayev

Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar
evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan 58

R.Ahmedov

Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning
yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar) 63

Sh.Jumayev

Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun 70

I.Xo'jaxonov

Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi 74

A.Sarsenbayev, N.Turambetov

Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI) 78

R.Akbarov

Ikkinci jahon urushi yillarda o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy
resurlardan foydalanish masalasi 85

R.Murodaliyev

So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida 92

N.Turambetov

Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim 98

X.Ergasheva

1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi 103

Sh.Xonimov

Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga
globallashuv jarayonlarining ta'siri 109

**O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA GENDER O'Z-O'ZINI ANGLASH KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ГЕНДЕРНОГО
САМООСОЗНАНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ-ПОДРОСТКОВ**

**PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING GENDER SELF-AWARENESS SKILLS IN
ADOLESCENT STUDENTS**

Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna¹

¹Tojiboyeva Xilolaxon Maxmutovna

– O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti direktor o'rinnbosari, pedagogika fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Annotatsiya

Ushbu maqolada gender yondashuv asosida o'smir yoshdagagi o'quvchilarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, unda o'smirlig davrining murakkab, ziddiyatlarga boy davr ekanligi, bu davrda o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholashning rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.

Аннотация

В статье анализируются особенности формирования иммунитета к «популярной культуре» у школьников-подростков на основе гендерного подхода. В ней рассматривается подростковый возраст как сложный, конфликтный период, и развитие самосознания и самооценки в этот период.

Abstract

The article analyzes the features of the formation of immunity to "popular culture" among adolescent schoolchildren on the basis of a gender approach. It considers adolescence as a difficult, conflict period, and the development of self-awareness and self-esteem during this period.

Tayanch so'zlar: gender yondashuv, ommaviy madaniyat, milliy madaniyat, o'smir yoshdagagi o'quvchilar, qiz bolalar, o'g'il bolalar, ijtimoiy rollar, pedagogik omillar, gender ziddiyatlar, xulq-atvor meyorlari, qadriyatl yo'nalishlar, gender ong, ommaviy madaniyat ko'rinishlari, psixologik xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari.

Ключевые слова: гендерный подход, массовая культура, национальная культура, учащиеся-подростки, девочки, мальчики, социальные роли, педагогические факторы, гендерные конфликты, нормы поведения, ценностные ориентации, гендерное сознание, проявления массовой культуры, психологические особенности, этапы развития.

Keywords: gender approach, popular culture, national culture, adolescent students, girls, boys, social roles, pedagogical factors, gender conflicts, behavioral norms, values, gender consciousness, popular culture views, psychological characteristics, development lines.

KIRISH

"Ommaviy madaniyat" maxsulotlari yoshlar e'tiborini o'ziga osongina jalg etadi. Chunki ularni o'zlashtirish intellektual zo'riqishni talab qilmaydi. "Ommaviy madaniyat"ga moyillikning dastlabki asoslari paydo bo'lishida o'smirlig davri qulay hisoblanadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'smir yoshdagagi o'quvchilarda ommaviy madaniyatning salbiy jihatlariga nisbatan immunitetni shakllantirish talab qilinadi. Shunday qilib, "ommaviy madaniyat"ga qarshi immunitetning shakllanishi shaxsning tarbiyalanishida, unda jamiyat talablariga xos xususiyatlari va fazilatlarning shakllanishida muhim o'rinn tutadi[1; 36-b.]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shaxsning shakllanishida o'smirlig davri alohida ahamiyatga ega. O'smirlig davrining chegarasi psixologlar tomonidan aniq belgilab berilmagan. U o'smirlarning rivojlanish darajasi va ontogenet bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Ilk o'smirlig davri 10 yoshdan boshlanib, 14 yoshgacha davom etadi. Katta o'smirlig yoshi esa 14-16 yosh davriga to'g'ri keladi. Aksariyat psixologlar o'z tadqiqotlarida o'smirlig davrining murakkab, ziddiyatlarga boy davr ekanligini ta'kidlaganlar. O'smirlig davri uchun xarakterli xususiyatlardan biri o'zini kattalardek his etishidadir. Bu davrda o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholash rivojlanadi. O'smir o'ziga shaxs sifatida qiziqish bildirib, layoqatlari va imkoniyatlarini yuqori baholaydi.

Shaxsning har bir yosh davri o'ziga xoslikka ega bo'lib, rivojlanishning muayyan qonuniyatlariga tayanadi. Bu asosiy yutuqlar, shakllanish va qayta shakllanish imkonini beradigan holatlar, ruxiy

PEDAGOGIKA

rivojlanishning muayyan bosqichlariga xos sifatlarning namoyon bo'lishi, o'zini anglash layoqatining o'ziga xos jihatlarining ifodalanishida ko'rindi.

O'smirlarda 10-12 yoshdan boshlab o'zining kichik olamiga qiziqish boshlanadi. Asta sekin o'z-o'zini bilish jarayoni bosqichma-bosqich murakkablashadi. O'smir o'zi uchun ichki dunyosini kashf etadi. Yangi munosabatlar bilan bog'liq holda yangi kechinmalar, shaxsiy sifatlar, xatti-harakatlar rivojlanib o'z-o'zini tahlil qilish ko'nikmalari barqarorlashadi. O'smir o'zining qanday bo'lishini tasavvur eta boshlaydi, xarakterli jihatlarini namoyon etadi.

O'smirming o'z-o'zini anglashlariga sinfdoshlari, yaqin do'stlari ko'maklashadi. U o'z xatti-harakatlarini ularniki bilan qiyoslaydi. Kattalar orasidan o'ziga yaqin hamfikrlarni izlab, ularga ergasha boshlaydi. O'smirming o'zini bilishi unda kognitiv xarakerdagi o'z-o'zini anglash konsepsiyasining shakllanishiga asos bo'ladi.

Ruxiy-ijtimoiy muvofiqlikning vujudga kelishi o'smirning o'z-o'zini anglashini ifodalaydi. Bu 3ta asosiy vazifa bilan ajralib turadi:

- bolalikdan o'tmishta aylanishi va o'z kelajagini tasavvur qilish loyihasiga ega bo'lish hamda o'zining shaxsiy o'zligini anglashning shakllanishiga erishish;
- o'zining ota-onasidan farqli jihatlarini anglashga intilishning tarkib topishi;
- o'smir shaxsining o'zligini anglashini ta'minlaydigan qadriyatlar tizimini amalga oshirish.

Gender o'z-o'zini anglash – shaxsnинг integral tavsifi bo'lib, o'zida shaxsiy o'zligi, "Men" konsepsiysi, gender stereotiplar, gender ustanovkalar, gender xulq-atvor, gender o'z-o'zini anglash va gender rollarni mujassamlashtiradi[2].

Yangi shakllangan o'smirlik yoshining tanqidiy bosqichi o'zini kattalarday xis qilish va o'z-o'zini anglashning yaqqol ifodalanishida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda o'smirlar atrofdagilar bilan munosabat o'rnatib, o'z rivojlanish yo'llarini tanlaydilar. O'smir yoshdagilar kattalarga taqlid qilib, ularning xulq-atvorlarini qabul qila boshlaydilar. Aksariyat xollarda alohida odatlar, ya'ni chekish, alkogollarni iste'mol qilish, nazoratdan qochish kabi hatti-harakatlari bilan kattalarga taqlid qiladilar[3; 67-b.].

O'smir yoshdagilar o'z-o'zlarini o'zgartirib, kattalardek tutishga intiladilar. Shuning uchun ham ular kuchli tarzda o'z-o'zlarini shakllantirish, mustaqil bilim olish va o'z-o'zlarini anglashga intiladilar. Bu ularning tashqi tomondan kattalarga o'xshashlari, kiyinish, pardoz-andoz anjomlarini yoqtirishlarida o'z ifodasini topadi.

O'smir yoshidagi qizlar pop-modellarga o'xshash, baland poshnali oyoq kiyimlarini kiyish, noan'anaviy soch turmaklarini qo'llash, modaga qarab kiyinish, turli xonandalar, kino yulduzlariga o'xshab gapirish xatti-harakatlarini bajarishga moyil bo'ladilar.

O'g'il bolalar esa jismoniy jihatdan baquvvat, rivojlangan bo'lishni istaydilar. Ulardagi o'zini anglash hissining mazmuni jismoniy quvvatini namoyon qishi va kuchli qiyofaga ega bo'lishdan iborat. ular o'zlarining jismoniy quvvatlarini muntazam nazorat qilib, ko'proq sport bilan shug'ullanish, o'z kuch-quvvatlarini tengdoshlari orasida yaqqol namoyon qilishga moyil bo'ladilar. ular o'zlarining gavdalari va yuz qiyofalarini munosib baholashga qiynaladilar. O'smir yoshdagagi o'g'il bolalar o'z gavdalaring barcha tarkibiy qismlari birday rivojlanishini xoxlaydilar va bunga harakat qiladilar.

Baholashning bunday shakli boshqalarni baholash orqali amalga oshiriladi. Rivojlanish jarayoni o'smir yoshdagagi o'g'il bolalarning o'zliklarini muvofiq tarzda anglash konsepsiyasida o'z aksini topadi. O'smirming gavda tuzilishi haqidagi fikrlar har doim real bo'lavermaydi. ular ba'zan bir-birini inkor qilishi ham mumkin. O'smirlar uchun o'zini erkaklik va ayollik nuqtai nazaridan baholash etalon hisoblanadi. Hech kimga sir emaski, o'smir yoshdagilar uchun gavdaning o'sib borishi asosiy ahamiyat kasb etadi.

O'g'il bolalar sportning turli turlari bilan shug'ullanishni xush ko'radilar. ular uchun mashg'ulotlar jarayonida o'z jismoniy kuchlarini ko'paytirish, erkaklik qiyofasini egallashga urinish muhim ahamiyat kasb etadi. O'smir yoshdagagi qiz bolalar esa badiiy gimnastika, raqs bilan shug'ullanish maroqli bo'lib, mazkur mashg'ulotlarda ular ayollik qiyofasiga xos bo'lgan nozik qaddi-qomat, nafis harakatlarga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yadilar.

O'z-o'zini anglash va o'zlikning rivojlanishi o'smir yoshdagagi qizlarning yetuklikka intilishidan dalolat beradi. Ularda jismoniy jihatdan ulg'ayish belgilari namoyon bo'lib, atrofdagilarni e'tiborini jalb qiladi. O'smirlarning ichki tug'ulari o'zgarishi barobarida ularning ijtimoiy rollari ham kengayadi. Bunday vaziyatda "Men kim?" degan savol ko'ndalang bo'lib turadi.

E.G.Oziyev[4]ning fikricha, o'smir yoshdagagi o'g'il va qiz bolalar orasida bir-biriga nisbatan jinsga xos o'zgacha munosabat va qiziqish vujudga keladi. O'smir yoshdagilar uchun atrofdagilarning munosabati muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'zlarining tashqi qiyofalariga alohida e'tibor qarata boshlaydilar. Shu tariqa ularda o'z jinsining vakili sifatida gender tasavvurlar vujudga keladi.

Ular o'zlarini atrofdagi tengdoshlari bilan qiyoslashlari natijasida o'z-o'zlariga bo'lgan baholar pasayib boradi. Bu ularning yoshlari xos bo'lgan o'zgaruvchanlik va rivojlanish jarayoni bilan bevosita bog'liq.

Aksariyat qiz bolalar o'z bo'ylarining xaddan tashqari uzun, o'g'il bolalar esa kalta bo'lismidan tashvishlanadilar. O'g'il bolalar semirib ketishdan qochib, ovqatlanish masalasida o'zlarini cheklay boshlaydilar, parvez tutishga harakat qiladilar. Qizlar o'zlarining tashqi ko'rinishlariga alohida e'tibor qaratadilar, boshqalarning fikri ular uchun muhim hisoblanadi. Bunday qizlar ularning bo'y-basti haqida bildirilgan turli munosabatlarga nisbatan qat'iylik bilan munosabat bildiradilar. Ular o'z ustilaridan kulishlari yoki tanqid qilishlariga murosasizlik bilan munosabatda bo'ladilar. Qizlarning kamchiliklarini yuziga solganda ular qattiq ranjiydi.

O'g'il va qiz bolalar o'zlarining ruxiy sifatlarini baholashga nisbatan turlicha munosabatda bo'ladilar. O'g'il bolalar o'zlarini kuchli, qo'rmas, jasur deb biladilar. Qizlar esa o'zlariga ko'proq tanqidiy munosabatda bo'ladilar. O'g'il va qiz bolalarning har birida yetuklik maromi turlichadir.

14 yoshli o'smir qizlar o'zlarini va o'g'il bolalar orasida ko'proq mavqega ega bo'lismni xohlaydilar. Jismoniy jihatdan zaif bo'lgan o'g'il bolalar o'zlarini to'laqonli shakllangan deb hisoblamaydilar. Ularda o'zlariga nisbatan salbiy munosabat, tobelik hissi kuchli bo'ladı. Rivojlanishdan orqada qolayotgan qizlarda esa ruxiy kechinmalar boshqacha tarzda namoyon bo'ladı. Yaxshi rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan ularda xavotir xissi kuchli bo'ladı. Bunday xavotirlilik ularning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq tarzda vujudga keladi. Shunday rivojlanishga ega bo'lgan o'g'il bolalar esa bunday qiyinchiliklarga duch kelmaydilar.

Gender identivlik muammosi oilada vujudga keladi. Aynan oila o'smir yoshdagagi o'g'il va qiz bolalarga asosiy ijtimoiy ta'sir ko'rsatadigan omil hisoblanadi. O'smir yoshdagagi o'g'il va qiz bolalarning ruxiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlanishlari uchun oilada qulay muhit yaratilishi lozim. Bunday muhitning mavjud bo'lmasligi esa o'g'il va qiz bolalarning ham ruxiy ham jinsiy muvofiqliklarini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning shaxsiy sifatlari ham o'smirlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. O'smir yoshdagilar uchun oilaning to'liqligi muhim ahamiyatga ega. O'smirning hayotida ota-onaning o'rni beqiyos bo'lib, to'liq oilada kamol topayotgan o'smirlar ruxiy jihatdan sog'lom bo'ladilar.

XULOSA

O'smir yoshidagi qizlar o'z kechinmalarini yaxshiroq ifodalab, ko'proq so'z zaxirasiga ega bo'lganliklari uchun ham o'z-o'zini anglashning o'ta nozik va murakkab jihatlarining shakllanishi oson kechadi. O'smir yoshdagagi o'g'il bolalarda esa emotsional jihatlar kuchli bo'lib, ular bu haqida ko'p gapirmaydilar. Ular o'z xis-tuyg'ularini shartli ravishda ba'zan esa musiqa yordamida ifodalaydilar. Biroq so'zlab berishni xoxlamaydilar. Shunga ko'ra pedagogik jarayonda ayniqsa, o'smirlarda ommaviy madaniyatga qarshi immunitetni shakllantirish jarayonida o'g'il va qiz bolalarning gender xususiyatlarini alohida hisobga olish talab qilinadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- Сафарова Р.Г. ва б. Ўқувчи-ёшларда "оммавий маданият"га қарши курашчанлик кўнилмаларини шакллантиришнинг педагогик-психологик механизmlари. - Монография. – Т.: "Tafakkur qanoti" нашриёти, 2018 йил, 192 бет.
- Практикум по гендерной психологии / Под ред. И.С.Кпециной. – СПб.: Питер, 2003. – 479 с.
- Тожибоева Х.М. Ўқувчи-ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Т., 2018. – 152 б.
- Фозиев Э. Психология: ёш даврлари психологияси: педагогика институтлари ва университетларнинг талабалари учун ўқув кўлланма / Э. Фозиев. - Тошкент: Ўқитўвчи, 1994. - 223 с.